

JIGAR SIRROZIDA ASORATLARNING OLDINI OLISH VA DAVOLASH STRATEGIYALARI

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

davolash ishi yo'nalishi 3 - kurs talabasi

Abdurahmonova Dilnoza

Annotatsiya; Mazkur maqolada jigar sirrozining patogenez jarayonlari, klinik belgilar va eng ko'p uchraydigan asoratlari haqida so'z yuritiladi. Sirroz fonida rivojlanadigan portal gipertenziya, assit, varikoz kengaygan venalardan qon ketishi, gepatorenal sindrom va gepatotsellyulyar karsinoma kabi asoratlarning oldini olishda zamonaviy yondashuvlar va davolash strategiyalari yoritilgan. Profilaktika choralarida parhez, dori vositalari, endoskopik usullar, jigar transplantatsiyasi va yangi terapevtik imkoniyatlarning ahamiyati ta'kidlangan. Maqola bakalavr va doktorantura darajasida o'qiyotgan talabalar uchun ilmiy-amaliy manba sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar; Jigar sirrozi, asoratlari, assit, portal gipertenziya, davolash.

Jigar sirrozi — bu surunkali progressiv kasallik bo'lib, jigarda qaytarilmas morfologik o'zgarishlar, fibrozlanish va nodulyar regeneratsiya bilan kechadi. Kasallikning asosiy sabablari orasida alkogolizm, virusli gepatit B va C, alkogolsiz yog'li jigar kasalligi, autoimmun jarayonlar, dori-darmon toksikligi va genetik-metabolik sindromlar ajralib turadi. Dunyo bo'yicha jigar sirrozi o'lim sabablarining ilk o'nligidan joy olgan. Sirrozning xavfli jihati uning asoratlari bo'lib, ular ko'pincha bemorning hayotini qisqartiradi. Jigar sirrozining klinik oqibatlarini turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1. Portal gipertenziya – qizilo'ngach va me'da varikoz tomirlari, gemorroy, splenomegaliya. 2. Assit – qorin bo'shlig'ida suyuqlik yig'ilishi. 3. Varikoz kengaygan venalardan qon ketishi – hayot uchun xavfli holat. 4. Gepatorenal sindrom – buyrak yetishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi. 5. Gepatotsellyulyar karsinoma – sirroz fonida jigar saratoni rivojlanishi. 6. Jigar ensefalopatiyasi – asosan ammiak va boshqa toksinlarning

ta'siri natijasida ong buzilishi.

Asoratlarning oldini olish choralar; Parhez va turmush tarzini tuzatish: alkogolni to'liq cheklash, kam tuzli parhez, oqsil va vitaminlarga boy ovqatlanish. Virusli gepatitlarni davolash: antivirus preparatlari (tenofovir, entekavir, sofosbuvir). Portal gipertenziyani oldini olish: neselektiv beta-blokatorlar (propranolol, nadolol). Assit profilaktikasi: diuretiklar (spironolakton, furosemid), tuz iste'molini kamaytirish. Qon ketishini oldini olish: endoskopik ligatsiya, skleroterapiya, shuningdek farmakologik vositalar (oktreotid, terlipressin). Gepatorenal sindrom profilaktikasi: nefrotoksik dorilardan saqlanish, diuretiklarni me'yorida qo'llash, albumin infuziyalari. Gepatotsellyulyar karsinoma skriningi: har 6 oyda ultratovush va alfa-fetoprotein darajasini aniqlash. Davolash strategiyalari; 1. Medikamentoz davolash: Antivirus preparatlar (HBV, HCV uchun). Antifibrotik vositalar bo'yicha yangi tadqiqotlar (simtuzumab, obetixol kislota). Laktoza va rifaksimmin – jigar ensefalopatiyasida. Albumin va diuretiklar – assitni kamaytirishda. 2. Endoskopik va jarrohlik yondashuvlar: Varikoz kengaygan venalardan qon ketishda endoskopik ligatsiya. TIPS (transyugulyar intrahepatik portosistemik shunt). Splenektomiya ayrim hollarda. 3. Jigar transplantatsiyasi: – Sirrozning yakuniy davolash usuli bo'lib, MELD balliga qarab ko'rsatma beriladi. – Transplantatsiya sohasida immunosupressiv terapiya va donor tanlash muhim o'rin tutadi. 4. Yangi istiqbolli usullar: Kletka terapiyasi (mezenximal ildiz hujayralari). Biojigar (sun'iy jigar apparatlari). Antifibrotik dorilar bo'yicha klinik tadqiqotlar.

Jigar sirrozida asoratlarning oldini olish davolash jarayonining eng muhim bosqichidir. Har bir bemor individual yondashuvni talab qiladi. Sirrozning sababini aniqlash va uni bartaraf etish davolash natijadorligini oshiradi. Profilaktika va zamonaviy davolash strategiyalarining kombinatsiyasi bemor umrini sezilarli darajada uzaytiradi.

Xulosa;

Jigar sirrozi va uning asoratlari hozirgi kunda ham global muammo bo'lib qolmoqda. Asoratlarning oldini olishda erta tashxis, doimiy monitoring va

individual davolash rejasi muhim ahamiyat kasb etadi. Dori vositalari, endoskopik va jarrohlik usullarning uyg'un qo'llanilishi bemorning hayot sifatini yaxshilaydi. Transplantologiya va regenerativ tibbiyot esa kelajakda sirrozni samarali davolashning asosiy yo'nalishiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. European Association for the Study of the Liver (EASL). Clinical Practice Guidelines: Management of liver cirrhosis. J Hepatol. 2021.
2. Garcia-Tsao G, et al. Portal hypertension and variceal bleeding — unresolved issues. Hepatology. 2020.
3. Ginès P, Krag A, et al. Liver cirrhosis. Lancet. 2021; 398(10308):1359–1376.
4. Bruix J, Sherman M. Management of hepatocellular carcinoma: An update. Hepatology. 2019.